“O‘zbekistonda Kimyoviy texnologiyalar markazi salohiyatini oshirish” loyihasi doirasida master-planning jamoatchilik eshituvi bo‘lib o‘tdi

// 09 July 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zbekistonda-kimyoviy-texnologiyalar-markazi-salohiyatini-o



Bugun poytaxtimizda “O‘zkimyosanoat” AJ va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan birga amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda Kimyoviy texnologiyalar markazi salohiyatini oshirish” loyihasi doirasida master-planning jamoatchilik eshituvi bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari, davlat idoralari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektor vakillari ishtirok etdilar.

Unda mazkur loyihaning mamlakatimiz kimyo sanoatini transformatsiya qilish va ilmiy-texnik salohiyatni oshirishga qaratilgan muhim qadam ekanligi ta’kidlandi.

Loyihaning asosiy maqsadlari va rejalari quyidagilardan iborat:

- 200 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratish;
- mamlakatimizda eng so‘ngi texnologiya jihozlari o‘rnatish;
- xalqaro texnologiyalarni transfer qilish va eksport salohiyatini oshirish.



Ushbu tashabbus, shuningdek, Koreya Respublikasiga 10 nafar doktorantura va 12 nafar magistratura ta’limi uchun munosib nomzodini yuborish va ularning bilim va malakalarini oshirishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda, 7 nafar doktorant va 11 nafar magistrant Koreyaning oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishmoqda.



Tadbir ishtirokchilari KOICA va KRICT bilan amalga oshirilayotgan hamkorlikni yuqori baholashdi, aytilishicha, ushbu loyiha nafaqat ilmiy va ishlab chiqarish sohalarida, balki kadrlar tayyorlash, texnologiyalar transferi va investitsiya muhitini yaxshilash sohalarida ham katta imkoniyatlar yaratishini ta’kidladilar.


Uzkimyosanoat
KRICT
Hilton
TASHKENT CITY
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

Opening remarks







“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati